

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA AYOLLAR TIMSOLI TAHLILI

Bahriddinov Muslimbek Muhiddinovich

Andijon davlat chet tillari instituti,

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi, dotsent

Madinabonu Toshpo‘latova Obidjon qizi

Andijon Davlat Chet tillari Instituti 2 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi ayollar obrazi tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi asardagi ayollarning o‘sha davrdagi fikrlashi, dunyoqarashi, urf-odatları qay darajada ekanligini o‘rganishdir. Metodologiya sifatida komparativ va kontekstual tahlil usullari qo‘llanilib, asardagi ayollar timsoli va urf-odatların tasvirlanishi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Abdulla Qodiriyning mazkur asari ayollarning jamiyatdagi o‘rnini realistik uslubda aks ettirgan. Ushbu maqola adabiyotshunoslik sohasida Abdulla Qodiriy asarlarini ijtimoiy kontekstda o‘rganishning yangicha uslublarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: dinamik xarakter, oqila, oilaviy qadriyatlar, onaning ko‘ngli, mustaqil fikrlash, jasorat va sevgi, so‘z o‘yinlari, insoniy kamchiliklar, kundoshlik azobi

Аннотация: В данной статье анализируется образ женщин в произведении Абдуллы Кадыри “O‘tkan kunlar”. Основная цель исследования – изучить, в какой степени женщины в произведении были мыслителями, мировоззрением, обычаями того времени. В качестве методологии использовались методы компаративного и контекстного анализа, изучались женские образы и изображения обычаев в произведении. Согласно результатам исследования, данное произведение Абдуллы Кадыри реалистично отражает место женщин в обществе. Эта статья раскрывает новые методы изучения произведений Абдуллы Кадыри в социальном контексте в области литературных исследований.

Ключевые слова: динамичный характер, мудрость, семейные ценности, материнское сердце, независимое мышление, смелость и любовь, словесные игры, человеческие недостатки, повседневные страдания

Annotation: This article analyzes the image of women in Abdulla Qodiriy's "O'tkan kunlar". The main purpose of the study is to study to what extent the women in the work were thinking, worldview, customs of the time. As a methodology, methods of Comparative and contextual analysis were used, and the representation of women's personifications and Customs in the work was studied. According to the results of the study, this work of Abdulla Qodiriy reflected the place of women in society in a realistic style. This article reveals new ways of studying the works of Abdulla Qodiriy in the social context in the field of literary studies.

Keywords: dynamic character, Intelligence, family values, mother's heart, independent thinking, courage and love, word play, human imperfections, suffering from companionship

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ayollar obrazlari asosiy mavzulardan biri bo'lib, ular asarda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi ayollar obrazlari orqali o'z davridagi ijtimoiy msalalarni, ayollarning jamiyatdagigi o'rnini va ularning ichki kechinmalarini badiiy noziklik bilan ifodalangan. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tadqiqotimiz mavzusi jamiyatimizning XIX asrdagi turmush tarzi, urf-odatlarini hamda Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini o'rganishni dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

O'sha davrda ayollar asosan erkaklar tomonidan belgilangan qoidalar va ijtimoiy cheklovlar ichida yashashadi. Ularning hayoti ko'pincha erkaklarning qarorlari va jamiyat an'analari bilan chegaralangan biroq ushbu romanda bunga ters bo'lgan ayollarning tabiati tasvirlangan.

Ushbu romanning asosiy qahramonlaridan biri-O'zbekoyimning dunyoqarashi o'sha davr o'zbek jamiyatidagi ayollar hayotini yoritadi. U oilaning shani, an'analar va odob ahloqni yuqori o'ringa qo'yadi. Shu sababli uning bazi qarorlari Otabek va Kumushning, balki Zaynabning ham taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Abdulla

Qodiriy uni quyidagicha ta'riflaydi:” O'zbek oyim elli besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlikbir xotin...”(122-bet)

Yuqoridagi satrlardan anglashiladiki, O'zbek oyim tajriba va hayotiy bilimi yetarli yoshda bo'lsa-da, har doim ham vaziyatni chuqur tahlil qila olmaydi va ko'pincha o'ylamay noo'rin gapirib qo'yishi va ayrim noto'g'ri chiqargan qarorlari sababli bir qancha noxushliklarga yo'l qo'yadi.Bunga eng katta isbot qilib quyidagi jumlaning keltirishimiz mumkin: “Biz Otabekni Toshkanddan uylandirib boshini bog'lamasaq, kun sayin uning Marg'ilon yugurishidan qutila olmasmiz.Toshkanddan uylansa suv quyg'andek tinar qolar; Marg'ilon balosini esidan ham chiqarar...-deydir O'zbek oyim.Ya'ni hamisha yuragini shopirtirib, miyasini mashg'ul qilg'an muddaoni aytib solish fursatini qochirmaydir.”(125-bet)

Va bizga asardan ma'lumki, O'zbek oyim nafaqat eriga, balki butun Toshkantning xotinlariga o'tkirligi bilan mashhur.U tashrif buyurgan a'za va to'y egalari o'zlarini baxtli hisoblashardi.”O'zbek oyimning obro'si yolg'iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o'rda xonimlari ham ehtirom qilib o'zlarining “onaxonlari” deb bilar edilar.”(122-bet)U shunday obro'si uchun ham o'g'li Otabekni Toshkantning qiz,quda,uy,joy,nasl-nasabi joyida bo'lgan qiziga uylantirib to'y-u tamosha qilgisi keldi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki,O'zbek oyim dinamik xarakterga ega ya'ni o'zgaruvchan tabiatlik.Voqealar rivojida, muhit tasirida o'jar ayolning ongi va tabiati o'zgaradi; masalan, ilgari xush ko'rmay “andi” deb atagan Marg'ilonlik kelinini birinchi marta ko'rganida, unga mehri jo'shib,mahkam quchadi, yuzidan o'padi va negadir ko'zlari yoshlanadi, endi esa Zaynabni qo'yib, Kumush tarafga o'tadi.

O'zbek oyimning biroz aksi bo'lgan Oftob oyim-o'zbek oilaviy qadriyatlarini va an'analarining ramzi sifatida gavdalanadi.Yozuvchi uni shunday tasvirlaydi:”Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin...”

Oftob oyim o'rnak bo'luvchi boshqa o'zbek ayollari singari erining ra'yi va xoxishini hurmat qiluvchi va bajo keltiruvchi oqila ayoldir.Romanda

tasvirlanishicha: "Oftob oyim o'z fikrini ochiq aytishga yuraksina olmas, erining ko'ngli olinishidan qo'rqar...(42-bet) Bunga dalil sifatida qutidor(Oftob oyimning turmush o'rtog'i) bilan Otabekni kuyov qilish masalasida shunday javob beradi: "- Siz muvofiq ko'rgan bir ishka qarshi tushib, ra'yingizni qaytara olmayman..."

Lekin yolg'iz qizini uzoqqa jo'natmaslik yani Otabekni ichkuyov qilish ham ayni Oftob oyim xohishiga ko'ra bo'ldi.Balki bunday dilxiraliklarning ko'zga ko'rinmas ammo bosh sababi ham shudir.Yakka-yu yagona qizi Kumushni Marg'ilon borishiga necha martalab qarshi bo'ladi,ammo taqdir taqazosi bilan uyalganlaridan ham qudalarinikiga birga borishadi.

Onaning ko'ngli har narsani sezganidek,Oftob oyimning ham ko'ngli bo'lmay u uyda qizini qoldirgisi kelmaydi.Hatto qizini olib ketishi uchun O'zbek oyimga quyidagicha yomonlaydi: "...erka o'skan, lavzi tez, kundashlikka chidaydirgan siyoqi yo'q, har kun Zaynabingiz bilan g'idi-bidi qilaverib sizni qiynab qo'yarmikan deyman...Bir kuni kelganda onasi qurg'ur bir og'iz aytmagan edi, deb mendan ranjirmikinsiz deyman...Tana buzoqning turqi tuqg'anig'a tamg'a deganlaridek, albatta menga ravshan...Arazchi desangiz ham shu, ichi qoralik desangiz ham shunda...", "...Kumushni sizga yaxwi deb ayto olmayman". Harakatlari samarasiz ketgach qiziga Zaynab bilan o'chakishmasligini, yomonlik qilmasligini undan ehtiyot bo'lishini tayinlab Marg'ilonga Kumushsiz qaytadi.

Romanimizning asosiy qahramonlaridan biri Kumush nafaqat o'zining go'zalligi va samimiyligi, balki jasorati va sevgi yo'lida qat'iy qarorlar qabul qilishi bilan ajralib turadi. U mustaqil fikrlashga ega va o'sha zamondagi ayrim qizlarga nisbatan idrokli va ziyrakdir. E'tiborimizni ushbu parchaga qaratsak: "Qizim, sizning bunchalik zakovat va jasoringizga otangiz bilan eringiz qancha tashakkur aytsalar va o'zlarining mundane so'nggi umrlarini sizning baxshingiz, deb bilsalar arzir. Men ham sizning bu xizmatingiz evaziga eringiz bilan otangizni hozirdan boshlab ozod qildim".(98-bet). Ushbu parchadan Kumush otasi va turmush o'rtog'ini jazodan qutqarish uchun ayol kishi bo'lishiga qaramay dalil keltirib jasorat ko'rsatgagini anglashimiz mumkin.

Yozuvchi Kumush orqali xalqimizning urf-odatlariga xos nafosatning birini tasvirlaydi. Kumush va qaynotasi Yusufbek hojining ilk uchrashuvi shunday yoritiladi: “Kumush uyalib zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo‘yin egdi. Hoji qo‘li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga tekkizib olgan o‘z qo‘lini o‘pdi”.

Kumushning zukkoligini kundoshi Zaynabga qilgan so‘z o‘yinlaridan bilinadi, uning qarorlarida aks etadi.

Qahramonimiz Kumush nafaqat Otabekning yuragida sevgi-muhabbat, balki uning oilasi qalbida ham iliq munosabat uyg‘otdi. Uning Marg‘ilon qaytishiga qayniona va qaynotalari ruxat berishmaydi, shu bilan birga o‘zi ham ketishni xo‘shlamaydi. Onasi Oftoboyimning yalinib yolvorishiga qaramay Toshkentda Otabek yonida qoladi.

Zaynab, Abdulla Qodiriy tomonidan mahorat bilan yaratilgan murakkab obrazlardan biri hisoblanadi. U orqali muallif jamiyatdagi insoniy kamchiliklarni, jumladan, hasad, fitnachilik va o‘z manfaati yo‘lida boshqalarni qurbon qilish kabi salbiy fazilatlarni fosh etadi.

Kumushning Marg‘ilonga qaytmay Toshkentda qolishi Zaynabga og‘ir ekanligi yaqqol eziladi. Kumush kelgan kundan boshlab Otabekda yuz bergan jonlanish, Yusufbek hojining “Marg‘ilonda shunday kelinim bor ekan, bilmay yurgan ekanmiz” degan so‘zlari, O‘zbek oyimning Zaynab qolib Kumush tarafga o‘tib ketib uning ishlaridan kamchilik izlashlari, albatta Zaynabga kuchli zarba beradi. Ayniqsa, Zaynabning sha‘ni va nafsi tahqirlanib, javobsiz sevgi va e‘tiborsizlikdan ko‘ngli singanda, sevmasdan turib Otabekning quchog‘iga o‘zini tashlagan holati, uning ichki dardini ko‘rsatadi. Bu juda ham bir achinarli holatdir.

Kumushning homiladorligini bilishgach atrofdagilarning munosabati yanayam Kumushga nisbatan iliqlashib uni judayam asrab avaylashadi, Zaynab esa chetda qoladi. U ilgari kundoshlik azobiga ko‘nikkan bo‘lsada, bu xabar uning holatini yanada og‘irlashtiradi. Biz o‘qiguvchilar Zaynabni ham, Kumush yoki Otabekni ham aybdor qila olmaymiz. Ota –ona orzulari tufayli ularning taqdirleri chigallashib, so‘nggida baxtsiz yakun topkani bizni achintiradi, xolos.

Yuvoshgina bo‘lgan, hatto Kumush kelmasidan oldin Otabekka ham ahamiyat bermagan Zaynab kundoshlik muhitida qasoskor ayolga aylandi. “O‘n besh kun ichidayoq buncha keskinlashkan Zaynabning ichki adovatining bir oyda qaysi darajalarga borib yetishini o‘ylar”. Va Kumush bu fikri borasida yanglishmadi. U Zaynabning fitnasiga qurbon bo‘ldi. Zaynabning tabiatini ushbu satrlardan bilshimiz mumkin: “Kundashingni ko‘rinishi bayovg‘a o‘xshasa ham, ammo o‘zi pismiqlik ekan... Bunday odamdan albatta hazar kerak”, yoki “Zaynab egachisining aksicha o‘z yaqinlaridan “pismiqlik” deb ism olg‘an, onasi bo‘lsa achchig‘i chiqq‘anda “ming‘aymas o‘lgur” deb uni qarg‘ar edi”.

Balki, uning qondosh opasi Xushro‘y unga noto‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, ongini bulg‘amaganda qo‘lini qotilikka urmasmidi. Ozmi ko‘pmi bu asarda Xushro‘y asosiy ro‘lda bo‘lmasa ham uning qatnashuvi orqali Zaynab tug‘ruq dardi bilan olishayotgan Kumushni zaharlaydi. Xushro‘yning o‘zi ham isyonkor, bir oilani baxtini buzgan ayol sifatida gavdalanadi. Albatta yomonlik jazosiz qolmaydi, Xushro‘y farzandli bo‘la olmagan bo‘lsa, singlisi Zaynab devona bo‘lib qoldi. Shu orqali Abdulla Qodiriy yomonlik va hasadning oxiri halokatli bo‘lishini ko‘rsatdi.

Xulosa

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida ayollarni nafaqat ikkinchi darajali qahramon sifatida, balki jamiyat hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida tasvirlagan. Ushbu obrazlar o‘sha davr o‘zbek ayolining qiyofasini qayta jonlantirish va ularning ijtimoiy hayotdagi rolini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Romandagi ayollar obrazi jamiyatdagi tenglik, muhabbat va ehtirom masalalarini o‘quvchini mulohaza yuritishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qodiriy, «O‘tkan kunlar». «Yangi nashr», 2019-yil.
2. Saparbaev. I Abdulla Qodiriyning “O‘tkan Kunlar” romani. Badiiy tasvir vositalari.
3. Ibrohimova Ozoda Abdulxorisova Sayyora (2022) ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI TAHLILI.